

IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA O'ZBEKISTON AHOLISINING MAISHIY MUAMMOLARI.

Alimov Obidjon Sultanmurod o'g'li

QarDU mustaqil tadqiqotchi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13336613>

Annotatsiya. Mazkur tadqiqot ishida, urush yillarida O'zbekiston aholisining maishiy muammolari ya'ni turar-joy, oziq-ovqat, aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish va boshqa bir qator maishiy masalalar tahlil qilingan.

Kalit so'zlari: front, evakuatsiya, tuar-joy, qishloq xo'jaligi, mehnat, ayollar, bolalar, ocharchilik, kasallik, tibbiy xizmat.

DOMESTIC PROBLEMS OF THE POPULATION OF UZBEKISTAN DURING WORLD WAR II.

Abstract. In this research work, household problems of the population of Uzbekistan during the war years, i.e. housing, food, providing medical services to the population, and a number of other household issues were analyzed.

Key words: front, evacuation, housing, agriculture, labor, women, children, famine, disease, medical service.

БЫТОВЫЕ ПРОБЛЕМЫ НАСЕЛЕНИЯ УЗБЕКИСТАНА В ВРЕМЯ ВТОРОЙ МИРОВОЙ ВОЙНЫ.

Аннотация. В данной исследовательской работе были проанализированы бытовые проблемы населения Узбекистана в годы войны, а именно жилье, питание, оказание медицинских услуг населению и ряд других бытовых вопросов.

Ключевые слова: фронт, эвакуация, жилье, сельское хозяйство, труд, женщины, дети, голод, болезни, медицинское обслуживание.

Kirish. Ikkinci jahon urushi Sovet Ittifoqini chuqur iqtisodiy va ijtimoiy inqirozga olib keldi. Garchi urush vayron qilmagan bo'lsa-da, O'zbekiston ham bundan mustasno emas edi.

Urushga erkaklarining safarbar etilishi, 1 mln dan ortiq aholining evakuatsiya va deportatsiya qilinishi natijasida aholi o'rtaida turar-joy, oziq-ovqat tanqisligiga sabab bo'ldi.

Tibbiy xizmatni qoniqarsizligi, kasallik va ochlikdan o'lim soni ko'paydi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar.

Sovet davridagi va undan keying yillardagi ma'lumotlarda O'zbekiston SSR tarixi IV tomlik, Sirojov O. Turdiyev S, Inayatov H va boshqa bir qator mualliflar asosan sanoat va qishloq xo'jaligi bilan bog'liq bo'lgan masalalar, sanoat maxsulotlarini yetkazib berish hamda jangohlardagi jasoratlar haqida umumlashtirilgan ma'lumotlar bor. Lekin, urush yillarida aholining maishiy muammolari alohida tahlil etilmagan.

Natijalar va muhokama.

Urush Sovet Sotsialistik Respublikasining barcha sohalariga ta'sir ko'rsatdi. Erkaklar urushga safarbar etilish, sanoat ishlab chiqarishini urush davri ehtiyojlariga mos ravishda o'zgartirish, evakuatsiya qilingan zavodlar o'rnatilishi, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi ko'proq oziq-ovqat mahsulotlarini o'z ichiga olgan holda kengaytirilishi, evakuatsiya qilingan aholini oziq-ovqat va boshpvana bilan ta'minlash kabi muammolar yuzga keldi. Bu esa, mahalliy

aholining maishiy hayotini og'ir ahvolga solib qo'yadi. Urushning betartibligi va keng qamrovli safarbarlik O'zbekistonda ishlab chiqarishi sohasiga va jamiyatiga juda xilma-xil ta'sir ko'rsatdi.

Sanoat ishlab chiqarishining hayratlanarli darajada portlashi bilan birga, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi halokatli darajada pasaydi. sanoat ishchilar to'yib ovqatlanmaslikdan , dehqonlar ochlikdan o'lgan bo'lsa, shahar bozorlari va qishloq joylarida oziq-ovqatlarni narxi qimmat bo'lib, pulning qardsizlanishi [1] yuzaga keldi. Shaharlarda ham, qishloqlarda ham jinoyat va o'zlashtirish ko'paydi. davlat qatag'onlari ko'payib, minglab ishchilar va kolxozchilarni soxta jinoyatlar bilan qamoqqa tashladi.

Dushman egallagan hududlardagi qishloq xo'jaligiga ham katta zarar yetkazildi.

Bosqinchilarning xujumidan oldin 70 million gektardan ortiq maydonga don va texnik ekinlar ekilgan, 25 millionga yaqin qoramol, 19 million cho'chqa va 27 million qo'y-echki boqilgan. Germaniya fashistlari tomonidan ulkan unumdar yerlar egallab olingan. Umuman olganda, mamlakat ekin maydonlarining 47 foizi bosib olingan hududda joylashgan bo'lib, bu urushdan oldin umumittifoq g'alla yetishtirishning yarmini, barcha qand lavlagi yetishtirishning 86 foizini va umumiyl hosilning 50 foizini olish imkonini berdi. Urushning birinchi kunlaridanoq korxonalarining katta qismi jangovar zonada joylashgan. Dushman bosib olgan hududdagi sanoat korxonalari evakuatsiya qilindi. Ko'chirilmay qolganlari esa butunlay vayron qilindi. SSSR

Oziq-ovqat sanoati xalq komissarligiga qarashli bo'lган 5500 ta korxona jiddiy zararlangan. Eng muhim iqtisodiy rayonlarning vaqtincha yo'qolishi SSSR xalq xo'jaligiga katta zarar etkazdi, uning ko'plab muhim tarmoqlarining yirik ishlab chiqarish quvvatlari uzoq vaqt davomida to'xtatildi.

Urush boshlanishi bilan O'zbekistonga dushman bosib olgan hududlardan aholining evakuatsiya qilish jarayonlari boshlandi. Respublika aholisi evakuatsiya qilinganlarga katta g'amxo'rlik ko'rsatdi. Ularga uy-joy, oziq-ovqat, kiyim-kechak bilan yordam berdi. Ota-onasidan ayrilgan evakuatsiya qilingan bolalarga alohida e'tibor qaratildi. 1942-yil 2-yanvarda Toshkent ayollarli O'zbekistonning barcha ayollariga murojaat qilib, evakuatsiya qilingan bolalarga onalik mehrini ko'rsatishni so'radi. 1942 yilning avgustiga kelib O'zbekistonda 3000 ga yaqin oila evakuatsiya qilingan bolalarni tarbiyalash uchun olib ketdi, biroq davlatdan moddiy yordam olishdan bosh tortdi. Birgina Toshkent shahrida 643 ta oila va 69 ta jamoa oldi. Ota-onasiz qolgan bolalarni tarbiyalash. Jami 4,5 mingdan ortiq turli millat farzandlari o'zbeklar oilasiga qabul qilindi. Shahmed va uning rafiqasi Baxrining Shamaxmudovlar oilasi 15 nafar yetim bolani, Xamit Samadov 13 nafarni asrab oldilar. Samarqand viloyatidagi Engels nomidagi kolxozi raisi, olti farzandning onasi Fotima Qosimova turli millatlardan 12 nafar farzand asrab olgan. Ammo, mahalliy aholining o'zida ham turar-joy va oziq-ovqat bilan bo'gliq muammolar bor edi.

Evakuatsiya jaraonida aholi tabaqalarga ajratilgan holda ko'chirilgan. Olimlar va sanoat korxonalarining ishchilarli alohida ko'chirilib, turar-joy bilan ta'minlangan. Qolgan aholi vakillari esa urushdan oldin molar yuklalandiga vagonlarda olib kelingan. Ularni joylashtirish masaladida aniq rejali ishlab chiqilmagan. Bunday aholi garajlarda, maktab binolarida, yarim yer to'lalarda[2] va mahalliy aholi xonardonlarida[3] yashashgan.

1941 yilning iyulidan noyabrigacha sharqqa 1500 ga yaqin korxona evakuatsiya qilindi.

Urush yillarda O'zbekiston 104 korxona[4] evakuatsiya qilindi. Bular Leningrad to'qimachilik mashinasozligi zavodi, Rostselmash, Sumi compressor zavodi, Dnepropetrovsk

karborund zavodi, Moskva Podimnik, Xarkov elektrostanok, Dnepropetrovsk vagon ta'mirlash zavodi, Moskva asbobsozlik zavodi, Moskva aviatsiya zavodi, Stalingrad ko'plab kimyo zavodi va boshqalar.

Toshkent va Toshkent viloyatida 63 ta[5], Samarqand viloyatida 14 ta zavod va fabrikalar, Farg'ona vodiysida 22 ta, Buxoro viloyatida 2 ta korxona mavjud edi. Biroq, aholining maishiy haotini yengillashtirish o'rniiga juda ham og'ir ahvolga solib qo'ydi.

Mamlakatni oziq-ovqat bilan ta'minlash muammosi keskinlashdi.

O'zbekiston o'zining oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini ichki zaxiralar hisobiga, ekin maydonlarini kengaytirish va g'alla, sabzavot, chorvachilik mahsulotlarini yig'ishni ko'paytirish, shu bilan birga paxta yetishtirishning bir xil hajmlarini saqlab turishi kerak edi.

Sovet Ittifoqining hamma joyida bo'lgani kabi aholining ahvoli juda og'ir edi. mahalliy ocharchilik [6] bor edi. Urush yillarida non ta'minoti bilan bog'liq bo'lgan qonunbuzarliklarning asosiy sababini quyidagilar tashkil qiladi. Birinchidan, aholiga kartochkalar orqali tarqatilayotgan non normalari yetarli bo'lмаган. Ikkinchidan esa aholi kartochkada belgilangan non normalarini sotib olomagan. Tekshiruvlar hamda qonunbuzarliklar oqibatida non bilan boshqa oziq-ovqat maxsulotlariga belgilangan norma kamayib ketadi. Jismoniy jihatdan og'ir mehnat qilayotgan ishchilar fiziologik jihatdan qondiraolmangan. Ikkinci jahon urushi yillarida birorta inson kartochka olomasa yoki kartochkasini o'g'irlatishi o'lim bilan barobar hisoblangan.

Ochlikdan vafot etganlar ham ko'p bo'lgan[7].

Ikkinci jahon urushi yillarida kartochka tizimi orqali non normalari belgilangan bo'lsada, ular doimiy emasdi. Buning asosiy sababi, qirg'oqchilik bo'lgan yillarida g'alladan kam hosil olinadi va zaxiralarning yetishmasligi aholiga kartochka tizimi orqali belgilangan non normalari miqdorini o'zgartiradi.

Urush davridagi respublikada mustahkam oziq-ovqat bazasini yaratish vazifasi bajarildi.

Respublika nafaqat ichki ehtiyojlarni qondirdi, balki armiyani qishloq xo'jaligi mahsulotlari, fashistlardan ozod qilingan hududlar bilan ham ta'minladi. Ana shunday qiyinchiliklarga qaramay, O'zbekiston qishloq mehnatkashlari urush yillarida davlatga 82 million pud g'alla, 231 ming sentner sholi topshirdilar. O'zbekistonda mustahkam oziqovqat bazasini yaratish vazifasi bajarildi. Urush yillarida O'zbekiston dehqonlari tomonidan 4 million 806 ming tonna paxta xomashyosi, 54,1 ming tonna pilla, 482 ming tonna kartoshka va sabzavot, 57,5 ming tonna meva va uzum, 36 ming tonna quruq meva, 259 ming tonna quruq meva yetishtirildi.

O'zbekiston nafaqat ichki ehtiyojni qondirdi, balki frontni va bosqindan ozod qilingan shahar va viloyatlarni qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan ta'minladi. Lekin, mahalliy aholi orasida ochlikdan va kasallikdan vafot etgan bolalarva qariyalar soni ortib boradi. Qishning sovuq kunlarida yoqilg'inining yetishmasligi sabali hamda toza ichimlik suvining yo'qligi, ochlikdan qiyalangan aholi o't-o'lanlarni, darxat po'stlig'ini iste'mol qilishi natijasida, ichburg', isitma, sil va boshqa kasalliklar soni ortib brogan. Qishloqlarda virachlarning umuman yo'qligi natijasida vafot etganlar ko'p bo'lgan.

Xulosa qiladigan bo'lsak, Ikkinci jahon urushi davrida O'zbekistonda aholini oziq-ovqat maxsulotlariga bo'lgan ehtiyojini to'liq qondirish uchun respublikaning imkoniyati yetarli

emasdi. O'zbek xalqi juda og'ir davrlarda ham insoniylikni unutmadi. Agar, 1.mln ko'chib kelgan aholi uy-joy va oziq ovqat bilan ta'minlanmasa barchasi halok bo'lgan bo'lardi. Respublika aholisi o'zi ochlikdan qiynalgan bo'lishiga qaramasdan, qizli armiyani va ozod bo'lgan rayonlarni ham oziq-ovqat bilan ta'minladi. Bularning barchasi o'zbek xalqining fashizm ustidan qozonilgan g'alabaga qo'shgan beba ho hissa edi.

REFERENCES

1. Donyorov A. Markaziy Osiyo xalqlari tarixi (yangi va eng yangi davr).- Toshkent: ToshDShI, 2013. – В 98.
2. Ўзбек халқининг иккинчи жаҳон урушида ғалабага қўшган ҳиссаси.(Архив хужжатлари тўплами). Тошкент: “Академнашр”. 2023. Б -355.
3. Очил Сирожов. Бухоро фидойилари. –Бухоро, 1995. Б.14.
4. Закон о пятилетием плане восстановления и развития народного хозяйства СССР на 1946 г. - Москва, 1946. - С.6.
5. Ражабов Қ, Замонов А. Ўзбекистон тарихи (1917-1991 й.). 1-нашр.-Тошкент: Фофур Гулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2017.-В.91
6. ЎзМА 837-фонд, 32-рўйхат, 3740-иш, 154-варак.
7. Иркаева Н. Қашқадарё ва Сурхондарё вилоятлари Иккинчи жаҳон уруши йилларида.– Тошкент.: Янги нашр, 2015. Б-50.